

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 28-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2022-yil 17-martda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrda qabul qilingan O'RQ-582-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 11, 790-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda) **38-moddasidagi** "shuningdek Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarning" degan so'zlar "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining, shuningdek Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarning" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 163-I-sonli va 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan 256-I-sonli qonunlari bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 2-songa ilova, № 11-12; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 9, 229-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 182-modda; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-modda, № 9, 494, 498-moddalar; 2007-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 4, 156, 164-moddalar, № 8, 367-modda, № 9, 416-modda, № 12, 598, 608-moddalar; 2008-yil, № 4, 192-modda, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2010-yil, № 9, 335, 337, 340-moddalar; 2011-yil, № 12/2, 363, 364, 365-moddalar; 2012-yil, № 4, 106, 109-moddalar, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 9, 510-modda, № 12, 773-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 3, 161, 166-moddalar, № 5, 267-modda, № 10, 671-modda; № 12, 880, 886-moddalar; 2020-yil, № 1, 3, 4-moddalar, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-modda, № 10, 968-modda) 70-moddasining **oltinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Unitar korxona rahbari, shuningdek agar bu korxonaning ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, kuzatuv kengashi uning boshqaruv organidir. Unitar korxonaning rahbari va kuzatuv kengashi mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi".

3-modda. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-I-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-mayda qabul qilingan O'RQ-370-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 5, 128-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4-moddalar, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 3, 166-modda, № 12, 880, 886, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 973-modda) quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilsin:

1) **13-moddaning:**

uchinchi qismi chiqarib tashlansin;

to'rtinchi va **beshtinchi qismlari** tegishincha uchinchi va to'rtinchi qismlar deb hisoblansin;

2) **22-modda** chiqarib tashlansin;

3) **42-moddaning:**

uchinchi qismi chiqarib tashlansin;